

O'ZBEKISTON MUSIQIY PEDAGOGIKASI TARIXIGA BIR NAZAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19508284>

Topildiyev Saidmurod Odiljon o'g'li

topildiyevsaidmurod@gmail.com

Qo'qon davlat universiteti

"Xalq ijodiyoti" kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston musiqiy pedagogikasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tarixiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Qadimgi davrlardagi og'zaki ustoz-shogird an'anasi, jadidchilik davrida musiqa ta'limidagi islohotlar hamda, mustaqillik yillarida milliy musiqa ta'limining qayta tiklanishi yoritib beriladi. Shuningdek, milliy musiqa merosining ta'lim jarayonidagi o'rni va zamonaviy musiqiy pedagogika rivojidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola materiallari musiqa ta'limi sohasi mutaxassislari, o'qituvchilar va talabalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar

musiqiy pedagogika, o'zbek musiqa madaniyati, ustoz-shogird an'anasi, jadidchilik harakati, maqom san'ati, nota savodi, musiqa ta'limi, milliy meros

Аннотация

В данной статье анализируются этапы формирования и развития узбекской музыкальной педагогики с историко-педагогической точки зрения. Освещаются устная традиция учитель-ученик в древние времена, реформы музыкального образования в период правления Джадидов и возрождение национального музыкального образования в годы независимости. Также раскрывается роль национального музыкального наследия в образовательном процессе и его значение в развитии современной музыкальной педагогики. Материалы статьи имеют практическое значение для специалистов в области музыкального образования, преподавателей и студентов.

Ключевые слова

музыкальная педагогика, узбекская музыкальная культура, традиция «учитель-ученик», движение «Джадид», искусство маком, музыкальная грамотность, музыкальное образование, национальное наследие.

Abstract

This article analyzes the stages of formation and development of Uzbek musical pedagogy from a historical and pedagogical perspective. The oral tradition of teacher-student in ancient times, reforms in music education during the Jadid period, and the revival of national music education during the years of independence are highlighted. The role of national musical heritage in the educational process and its significance in the development of modern musical pedagogy are also revealed. The materials of the article are of practical importance for specialists in the field of music education, teachers and students.

Keywords

music pedagogy, Uzbek musical culture, teacher-student tradition, Jadid movement, maqom art, musical literacy, music education, national heritage

Kirish

Musiqa inson ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi muhim san'at turlaridan biridir. U nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki shaxs tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashda muhim o'rin tutadi. Har bir xalqning musiqiy pedagogikasi uning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniy merosi bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston hududida musiqa qadimdan xalq hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Shu sababli musiqani o'rgatish, avloddan-avlodga yetkazish masalasi doimo dolzarb bo'lgan. O'zbekiston musiqiy pedagogikasi tarixi og'zaki an'anaviy ta'limdan tortib, zamonaviy ilmiy-pedagogik tizimgacha bo'lgan uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Ushbu maqolada ana shu jarayon bosqichma-bosqich yoritiladi.

Qadimgi davrlarda o'zbek musiqiy ta'limi rasmiy o'quv muassasalari orqali emas, balki kundalik hayot jarayonida shakllangan. Musiqa mehnat, marosim, bayram va urf-odatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Qo'shiq aytish, cholg'u chalish va ritmik harakatlar tabiiy ravishda o'rganilgan. Bu davr musiqiy pedagogikasining asosiy xususiyati og'zaki an'ana asosida rivojlanganidir. Musiqa bilimlari yozma manbalarsiz, eshitish va kuzatish orqali o'zlashtirilgan. Har bir hudud o'ziga xos kuylar, usullar va ijrochilik maktablariga ega bo'lgan.

Musiqa doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy - nazariy va amaliy tamonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy; Sheroziy, Marog'iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan. Shuni qayd etish lozimki musiqa nazariyasi hamma Sharq xalqlarida ba'zi tafovutlarni hisobga olmaganda deyarli bir xil mazmunda bo'lgan. Hatto maqomlar, sho'balar nomi ham o'xshash edi. Lekin, ularning musiqiy mazmuni har bir xalqning o'ziga xos bo'lib, bir-biridan tubdan farq etgan.

Ustoz–shogird an’anasi va uning pedagogik ahamiyati

Ustoz–shogird tizimi o‘zbek musiqiy pedagogikasining eng muhim tayanchidir. Bu tizimda ustoz nafaqat ijrochi, balki tarbiyachi vazifasini ham bajargan. Shogird esa nafaqat musiqa, balki odob-axloq, sahna madaniyati va hayotiy tajribani ham o‘zlashtirgan.

Mazkur hususiyatlarni hisobga olgan xolda aytishimiz mumkinki ushbu tizim quyidagi pedagogik xususiyatlarga ega bo‘lgan:

- Individual yondashuv
- Amaliy mashg‘ulotlarga ustuvorlik
- Uzoq muddatli va uzluksiz ta‘lim

Kaykovusning mashhur “Qobusnoma” asarida keltirilishicha « ... agar hofiz bo‘lsang, xushfe‘l, quvnoq bo‘l, hamma vaqt o‘zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirin so‘z bo‘l, o‘z ishingga mashg‘ul bo‘l, qo‘pol so‘z, qovog‘i soliq bo‘lmagil. Hamma vaqt og‘ir yo‘l (maqom)larni chalaverma va hamma vaqt yengil yo‘llarni ham chalaverma, chunki yo‘lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir–biriga muvofiq emas, chunki xalq xilma–xildir. Shuning uchun (musiqa) ilmining ustodlari musiqa cholg‘ulariga shunday tartib berganlarki, avval podshohlar majlisi uchun hisravona dostonlar tuzganlar, undan keyin vaznsiz bir og‘ir yo‘l tuzdilarki, uni ikki musiqa bilan aytsa bo‘ladi, bunga og‘ir yo‘l deb ot qo‘ydilar. Bu yo‘l keksalarning va o‘qigan odamlarning tabiatiga mos keladi. Bu yo‘lni shunday qavm uchun yaratdilar. So‘ngra (ustodlar) ko‘rdilarkim, xalqning hammasi qari va jiddiy kishilar emas. Shuning uchun yigitlarga moslab bir yo‘l ishlab chiqdilar. So‘ngra yengilroq vaznli she‘rlar uchun yengil yo‘llar tuzdilar, bo‘larga, «hafif» deb nom qo‘ydilar, og‘ir yo‘ldan so‘ng bu hafif yo‘lni chaldilar, bundan qarilar ham, yigitlar ham bahramand bo‘lsinlar deb o‘yladilar. So‘ngra yosh bolalar va yoqimli tabiatli odamlar bebahra qoldilar. Bu qavm uchun taronani ishlab chiqdilar, chunki hamma vaznlarning orasida taronadan yoqimli vazn yo‘qdir⁴

XX asr boshlarida jadidchilik harakati o‘zbek ta‘lim tizimida tub o‘zgarishlar yasadi. Jadidlar musiqa ta‘limini maktab tizimiga joriy etish, uni ilmiy asosda tashkil etish tarafdori bo‘ldilar. Musiqa endilikda faqat ijro san‘ati emas, balki tarbiya vositasi sifatida qarala boshlandi. Abdurauf Fitrat musiqani nazariy jihatdan tahlil qilib, milliy musiqa ilmiy o‘rganilishi zarurligini ta‘kidladi. U musiqa xalq ruhiyatini ifodalovchi kuchli vosita ekanini ko‘rsatdi.

Amaliy jihat: Shogird ustoz ijrosini diqqat bilan tinglab, uni takrorlash orqali o‘rgangan. Bu usul eshitish qobiliyati va xotirani kuchli rivojlantirgan.

⁴ “Qobusnoma” T., “O‘qituvchi” nashriyoti, 1967, 114–115–betlar

Yunus Rajabiy o'zbek maqomlarini notaga tushirib, ularni ta'lim jarayoniga kiritdi. Bu esa milliy musiqa asarlarini saqlab qolish va keng o'rgatish imkonini berdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, musiqiy pedagogikada milliylikni tiklash jarayoni boshlandi. Milliy musiqa merosi, ayniqsa maqom va folklor san'ati ta'lim tizimiga keng joriy etildi. Yangi o'quv dasturlari va darsliklar yaratildi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, audio va video materiallar, raqamli platformalar musiqa ta'limining ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi kunda musiqa o'qituvchisi quyidagi sifatlarni o'zida mujassam etishi lozim:

- Milliy musiqa merosini chuqur bilish
- Zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash
- Axborot texnologiyalaridan foydalana olish

Bu talablar musiqiy pedagogikaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

O'zbekiston musiqiy pedagogikasi tarixiy taraqqiyot jarayonida boy tajriba to'plagan. Og'zaki an'anaviy ta'lim, jadidchilik davri yangilanishlari, sovet davri tizimliliigi va mustaqillik davri milliy tiklanishi bugungi musiqa ta'limining mustahkam asosini tashkil etadi. Ushbu tarixiy merosni chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash zamonaviy musiqiy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Fitrat A.** O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
2. **Rajabiy Y.** O'zbek maqomlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1963.
3. **Karomatov F.** O'zbek xalq musiqasi. – Toshkent: Fan, 1972.
4. **Jabborov I.** O'zbek musiqa pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
5. **Tojiyev M.** Musiqa ta'limi metodikasi. – Toshkent: Musiqa, 2015.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining musiqa ta'limiga oid qarorlari va me'yoriy hujjatlari.